

9-sinf
4-chorak Adabiyot
CHSB

1. (B-2,5 ball) “Asrga tatigulik kun” romanida Qoranor kimning tuyasi edi?
 - A. Edigeyning
 - B. Kazangapning
 - C. Nayman onaning
 - D. Do‘nonboyning
2. (B-2,5 ball) Shekspirning “Hamlet” fojiasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan ijodkorni belgilang.
 - A. A.Qodiriy
 - B. Fitrat
 - C. Cho’lpon
 - D. Behbudiy
3. (B-2,5 ball) “Qoyilmisan insonga, zamin?” deb ataluvchi dostoni bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan ijodkor kim?
 - A. Chingiz Aytmatov
 - B. O‘ljas Sulaymon
 - C. Sharof Boshbekov
 - D. Shavkat Rahmon
4. (Q-4,5 ball) “Asrga tatigulik kun” romanida manqurt o‘g‘il Nayman onaning: “Nimani istaysan ?” – degan savoliga qanday javob beradi?
 - A. Asl ismini eslashni
 - B. Xo‘jayinimning ota-onasi singari ota-onam bo‘lishini
 - C. Xo‘jayinimning boshidagi singari kokil qo‘yishni
 - D. Xo‘jayinim singari xilma-xil ovqatlar yekishni
5. (Q-4,5 ball) Men seni sevaman
Beva-faryodni,
Baliq- daryoni,
Tulpor - keng yaylovn ni sevs a qanchalik.

Misralarda shoir sevgisi darajasi aks etgan she’r nomini aniqlang.

- A. “Tungi taqqoslar”
- B. “Arg‘umoq”
- C. “Baxt so‘zi”
- D. “Shunchaki”

6. (Q-4,5 ball) “Hamma zamonlardayam inson aql-u zakovatining mahsuli - buyuk kashfiyotlar sizga o‘xshagan johillar tufayli barbod bo‘lgan! Siz taraqqiyot dushmanisiz!” Ushbu parchaning qaysi asarga tegishli ekanligini aniqlang.
- “Asrga tatigulik kun”
 - “Hamlet”
 - “Mambet botirning qatl oldidan aytganlari”
 - “Temir xotin”
7. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanidagi Edigey obraziga *to ‘g’ri ta’rif berilgan javobni* aniqlang.
- Kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o‘zida kuch topa olgan qahramon edi.
 - Ma’lumotli bo‘lsa-da, ezgu insoniy tuyg‘ulardan mahrum, odamning ko‘nglini his etmaydigan, bobolarning udumlarini mensimaydigan inson edi.
 - O‘zining shaxsiy manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yuvchi zamonaviy manqurt edi.
 - Dushman qo‘liga asir tushib, xotirasidan mahrum etilgan, keyinchalik o‘z onasining o‘limiga sababchi bo‘lgan inson edi.
8. (Q-4,5 ball) “Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o‘lganda yana bir o‘zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan-bir noyob fazilati...” “Asrga tatigulik kun” romanidan keltirilgan ushbu parchadagi noyob fazilat nima?
- Xotira va sadoqat
 - Tug‘ilish va o‘lim
 - Xotira va aql-idrok
 - Xotira, aql, insoniylik
9. (Q-4,5 ball) “Asrga tatigulik kun “ romanidagi nomlar va ularning izohini moslashtiring.

Tushuncha	Izoh
1. Oqmoya	Manqurtni jungjanglardan qutqarishga borgan

2. Sobitjon	Shahardan dafn marosimiga kelgan Edigeyning o‘g‘li
3. Qoranor	Nayman onaning tuyasi
4. Do‘nanboy	Jo‘lomonga bolaligida kamon otishni orgatgan

- A. To‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri
 B. Noto‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri
 C. Noto‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri, noto‘g‘ri
 D. To‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri
10. (M-5,5 ball) “Asrga tatigulik kun” romanida Edigeyga nima uchun Bo‘ron laqabi berilgan deb o‘ylaysiz?
- A. Bekat nomi va xarakteri sabab
 B. Kazangapni dafn qilish uchun uzoq yo‘l bosib, bo‘ron bo‘lsa ham Ona Bayit qabristoniga olib borgani sabab
 C. Bo‘ron kabi kuchli bo‘lgani uchun
 D. Edigey ismining ma’nosи bo‘ron bo‘lgani sabab.